

"FAOL MIJOZ" **AKSIYA QOIDALARI**

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Ushbu Aksiya qoidolari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) ommaviy oferta hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, **"FAOL MIJOZ"** aksiyasini (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) o‘tkazish shartlari, ishtirok etish tartibi, ishtirokchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablar, ularni aniqlash mezonlari, sovrinlarni topshirish tartibi hamda ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan boshqa shartlarni belgilaydi.

Mazkur Qoidalar bilan tanishish va Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining mazkur ommaviy ofertani to‘liq qabul qilganligini (aksept qilganligini) anglatadi.

1.2 Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi.

1.3 Aksiyada ishtirok etish majburiy emas.

1.4 Aksiya Xalqaro pul o‘tkazmalari (XPO‘) xizmatlaridan foydalanuvchilar sonini oshirish va mijozlarni rag‘batlantirish maqsadida, Xalqaro pul o‘tkazmalari (XPO‘) bank mijozlari (XPO‘) foydalanuvchilari faolligini oshirish va qoidalariga muvofiq sovrinlar o‘ynalishini ta‘minlash maqsadida o‘tkaziladi.

1.5 Tashkilotchining aloqa ma‘lumotlari:

Telefon raqami: +998 (78)150-00-55;

Elektron pochta manzili: info@brb.uz

Rasmiy veb-sayt: www.brb.uz

Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, A.Navoi ko‘chasi, 18A-uy;

1.6 Aksiya “Biznesni rivojlantirish banki”ATB (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi) tomonidan 2026-yil 1-avgustdan 2026-yil 31-oktyabrgacha xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatlaridan foydalangan mijozlar o‘rtasida o‘tkaziladi.

1.7 Xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha Aksiya uning amal qilish muddati davomida aniqlangan faol mijozlar o‘rtasida o‘tkaziladi. Aksiya 3 (uch) oy davom etib, keying hisobot oyining 10-sanasiga qadar sarhisob qilinadi (aksiya ishtirokchilariga belgilangan Qoidada mukofot taqdim etiladi).

1.8 Aksiya bo‘yicha to‘lovlar (yutuqlar) ishtirokchiga topshirilgan tovarlar (ko‘rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) uchun to‘lov yoki moddiy yordam hisoblanmaydi.

1.9 Aksiya 2026-yil 1-avgustdan 2026-yil 31-oktyabrgacha (keyingi o‘rinlarda – Aksiya davri) o‘tkaziladi.

1.10 Aksiya 3 (uch) bosqichda o‘tkaziladi:

1-tur – 2026-yil 1-avgustdan 2026-yil 31-avgustgacha;

2-tur – 2026-yil 1-sentabrdan 2026-yil 30-sentabr;

3-tur – 2026-yil 1-oktyabrdan 2026-yil 31-oktyabr;

1.11 Aksiya davri Tashkilotchi tashabbusi bilan uzaytirilishi mumkin. Aksiya davri uzaytirilganda, Ishtirokchilar tashkilotchi tomonidan qo‘shimcha ravishda xabardor qilinadi.

2-BOB. AKSIYA MUDDATI VA O‘TKAZILISH HUDUDI

2.1. Aksiyaning umumiy o‘tkazilish muddati 3 (uch) oyni tashkil etadi.

2.2. Aksiya o‘tkazishning har bir bosqichi yakunlangandan so‘ng, hisobot kelasi oyning 10-sanasida (yoki undan keyingi birinchi ish kunida) qadar tasodifiy raqamlar generatori yordamida onlayn/shaffof tarzda o‘tkaziladi.

2.3. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida, ya’ni Bankning barcha bank xizmat ko‘rsatish ofislari va bank xizmat ko‘rsatish markazlari hamda Bankning rasmiy mobil ilovasi orqali xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar o‘rtasida o‘tkaziladi.

3-BOB. AKSIYA ISHTIROKCHILARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

3.1. Aksiyada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari shuningdek, xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari tomonidan yoshga doir belgilagan talablar bo‘yicha jismoniy shaxslar (mijozlar) ishtirok etishlari mumkin.

3.2. Quyidagi shaxslar Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emaslar:

⌚ Bank xodimlari;

3.3. Aksiyada ishtirok etish avtomatik tarzda amalga oshiriladi va mijoz tomonidan qo‘shimcha ariza yoki ro‘yxatdan o‘tish talab etilmaydi.

4-BOB. AKSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI VA MEXANIZMI

4.1. Aksiya ishtirokchisiga aylanish uchun mijoz ko‘rsatilgan muddatlar davomida quyidagi operatsiyalardan birini bajarishi lozim:

⌚ Bank kassalari orqali: Bankning istalgan bank tarmog‘i orqali xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlari (masalan, Western Union, MoneyGram, Astarsend, Zolotaya Korona va h.k.) yordamida pul jo‘natish yoki qabul qilish operatsiyalarini amalga oshirish;

⌚ Mobil ilova orqali: Bankning rasmiy mobil ilovasi yordamida masofaviy tarzda xalqaro pul o‘tkazmalarini jo‘natish yoki kelib tushgan mablag‘larni qabul qilish operatsiyalarini bajarish.

4.2. Aksiya doirasida operatsiyalar soni va hajmiga nisbatan minimal cheklovlar qo'yilmaydi.

5-BOB. G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI VA MEZONLARI

5.1. G'oliblar Bankning barcha bank xizmat ko'rsatish ofislari va bank xizmat ko'rsatish markazlari hamda Bankning rasmiy mobil ilovasi orqali xalqaro pul o'tkazmalari tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar o'rtasida, Bankning Marketing va Chakana biznes departamentlari hisobotlariga ko'ra avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABT) ma'lumotlari asosida shakllantiriladigan elektron hisobot yordamida tasodifiy raqamlar generatori orqali aniqlanadi.

5.2. Mijoz aksiya o'tkazish davrida xalqaro pul o'tkazish tizimlaridan bir necha amaliyot bajargan bo'lsa ham aksiyada bir mijoz sifatida qatnashadi.

5.3. Har bir bosqich g'oliblarini aniqlash jarayoni Bank tomonidan tuzilgan maxsus Hakamlar hay'ati (Komissiya) tomonidan nazorat qilinadi va tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

6-BOB. MUKOFOTLASH JAMG'ARMASI VA SOVG'ALARNI TOPSHIRISH

6.1. Aksiyaning sovrin jamg'armasi Bankning o'z mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

6.2. Har bir oylik bosqich natijalariga ko'ra 3 (uch) nafar mijoz Futbol bo'yicha 2026-yilgi Jahon chempionatiga bag'ishlangan esdalik kumush tangasi (yoki unga ekvivalent bo'lgan qimmatbaho sovg'a) bilan mukofotlanadi:

6.3. G'oliblar aniqlangan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Bank xodimlari mijoz bilan u ro'yxatdan o'tgan telefon raqami orqali bog'lanadilar va g'oliblar ro'yxatini Bankning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qiladilar.

6.4. Sovg'ani qabul qilib olish uchun g'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini (pasport yoki ID-karta) hamda STIR (INN) nusxasini taqdim etishi shart.

7-BOB. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Bank ushbu Qoidalar shartlariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish yoki Aksiyani muddatidan oldin to'xtatish huquqiga ega. Bunday holatda o'zgarishlar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) kun oldin Bank veb-saytida e'lon qilinadi hamda bunday o'zgartirishlar ular kuchga kirguniga qadar aniqlangan g'oliblarning huquqlariga ta'sir etmaydi.

7.2. Mazkur Aksiya bo'yicha yuzaga keladigan barcha nizolar, avvalo, muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.



IMZOLANGAN:

Chakana biznes departamenti Departament direktori v.b.:

N.Xikmetov

kelishuvchilar: U.Yoshozaqov, A.Akhrorkho'jayev, E.Sharipov, S.Niyazov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=pS37pK66&id=d70ea677-bd41-4529-9081-b493ea9941cb>